

MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH AHOLI TURMUSH DARAJASI BARQARORLIGI OMILI

Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Moliya va buxgalteriya hisobi "

fakulteti SD-61 guruh talabasi

Ilmiy rahbar: Burxonov Aktam Usmonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiy barqarorlikka erishishda raqobatdardosklikning ahamiyati hamda bu orqali aholi turmush darajasini yaxshilash ko'zda tutiladi. Raqobatbardoshlikka erishishdagi eng muqobil usullar tahlil qilinadi. Raqobat– bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtaсидagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lismish uchun kurashni anglatadi. Tovar –pul munosabatlari ma'lum darajada rivojlangan bozorlarda raqobat mavjud bo'ladi. Demak iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasida raqobat ahamiyatlidir va albatta bu aholi turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqobat, iqtisodiy manfaat, texnika –texnologiya, iqtisodiy bardaqrlik, raqobatbardosh korxonalar .

Kirish. Raqobat– bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtaсидagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lismish uchun kurashni anglatadi. Tovar –pul munosabatlari ma'lum darajada rivojlangan bozorlarda raqobat mavjud bo'ladi. Demak iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasida raqobat ahamiyatlidir va albatta bu aholi turmush tarziga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ma'lumki, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish yo'lida bugun jahon bozori konyukturasi keskin o'zgargan, glaballashuv sharoitida raqobat kuchaygan davrda yashayapmiz. Bu jarayonda mamlakat va mintaqalar iqtisodiyotini barqarorlashtirishda ularning raqobatbardoshligini oshirish zarurati paydo bo'ladi .Chunki bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar, raqobatning bo'lismishini taqazo qiladi. Bozordagi raqobatning mavjudligi aholi uchun ham bir qancha qulayliklar yaratadi. Avvalo iste'molchilar o'z xohish va istaklariga to'la mos keladigan tavar va mahsulotlarga ega bo'lishi mumkin. Hamda raqobatning mavjudligi aholi daromadining turli miqdordaligini hisobga olgan holda, ularning manfaatlarini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekiston respublikasi bиринчи prezidenti Islom Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib:""Raqobat bo'lmasa bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir" [1] . Haqiqatdan ham iqtisodiy barqarorlikka erishgan davlatlar bozorlarida keskin raqobat ichlab chiqaruvchilar yoki xizmat

ko'rsatuvchilarning yanada ko'proq ishlab , sifat darajalarini yaxshilashga intilishadi . Iqtisodchi M. Porter konsepsiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak : " Raqobatbardoshlik tushunchasi bu davlatning ishlab chiqarish darjasи va samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir . Ayni damda raqobatbardoshlilik aholining turmush tarzi , ish bilan ta'minlanganlik darjasи bilan baholanadi " [2] . Demak , raqobat aholi turmush tarzida yengilliklarni yaratadi . Masalan , o'z mijozlari sonini oshirish va mahsulotlarini xaridorgir bolishini maqsad qilgan tadbirkorlar endi o'z faoliyatini texnika-texnologiya vositalari bilan bevosita bog'lashadi . Natijada , iste'molchilar vaqtini tejashta erishishadi . Misol tariqasida meditsinani oladigan bo'lsak , ba'zi tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun avval bemorlar shifoxadan ro'yhatdan o'tishardi , hozir esa bu jarayonni online tarzda amalga oshiriladi . Aynan bu tizimni joriy qilgan davo markazlarida ko'p sonli bemorlar davolanishmoqda . Yana ikki iqtisodchi olimlar Barker va Kohler raqobatbardoshlilikni mamlakatning xalqaro bozoridagi o'rni bilan , ya'ni export darjasи bilan o'lchashadi . Bunda oshib boradigan aholining real daromadi raqobatbardoshlikning asl ko'rinishidir [3] .

Bilamizki, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ham turli shakllarda va darajada namoyon bo'ladi:

- mamlakat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi;
- mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining raqobatbardoshligi ;
- mamlakat korxonalarining (firmalarining) raqobatbardoshligi ;
- mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi;

Mamlakatning raqobatbardoshligi bu uning yaratish , ishlab chiqarish va tarqatish xususiyatlari bilan uzviy bog'liq hisoblanadi . Bundan tashqari mamlakat raqobatbardoshligini o'lchash borasida boshqa omillarga e'tibor qaratish kerakki, bu mamlakat mikro va makro darajalaridir . Masalan , mikro iqtisodiyotda raqobatga besh omil ta'sir etadi : mahsulot xususiyatlari , sotuvchilar soni , kirishdagi to'siqlar , ma'lumotlarning mavjudligi va joylashuvi . Demak mikroiqtisodiy raqobatdoshlikka erishishda narxlarning jozibadorligi , arzon va sifatli mahsulotlar , aholining talabi yuqori joylarda xizmatlarni ko'paytirish muhim.

Makroiqtisodiyotda raqobatga ta'sir qiluvchi faktorlar :soliq stavkalari , valkuta kurslari , inflyatsiya , ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif , ish haqi , qonunlar va siyosatlar , hukumat faoliyati va tanazzullar kiradi . Rivojlanish nuqtai nazaridan , eng muhim iqtisodiy omillarga ta'lim va ta'lim , tabiiy resurslar , energiya , transport va aloqa kiradi . Soliqlarning haddan oshib ketishi, inflyatsiya natijasida bozorlarda narxlarning ko'tarilishi aholi daromatlariga teskari proparsanal ekanligi bilan ularning yashash darajasining pasayishiga olib kelsa , ish haqining yuqorilashuvi aholida

ularning turmush tarzidan mammunlik , qoniqish kabi hislarni uyg'otishga yordam beradi .

Xalqaro miqyosda olsak , raqobatbardoshlik jahon bozorlaridagi beqarorlik sharoitida mamlakatni barqaror rivojlantirish vazifasini hal etishda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi . Chunki aholi turmush darjasи yuqori bo'lgan mamlakatlarda , har tomonlama , raqobat va innovatsiyalar uchun katta potensial mavjud bo'ladi . Shunindek mamlakatlar xalqaro bozorga taqdim etayotgan tavor va mahsulotlarining qanchalik past narxda ekanligi bu ularning raqobatbardosh ekanligining ham biri ko'rinishidir.

“O'zbekiston-2030 “ strategiyasi “Xalq xizmatidagi davlat ” tamoyili asosida ish ko'rар ekan , bunda aholini farovon hayot bilan ta'minlash asosiy maqsad hisoblanadi . Iqtisodiy jihatdan yanada barqarorlashish uchun turli islohatlar rejalashtirilgan . Xususan , Investitsiya yo'naliishi bo'yicha ham katta marralar ko'zlanmoqda. Xususan, iqtisodiyotga 250 milliard dollarlik yangi investitsiyalar, jumladan, 110 milliard dollar xorijdan, yana 40 milliard dollarlik mablag' davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali jalg' etilishi ko'zda tutilgan . Bundan buyon har bir tumanning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida reyting joriy etiladi. 150 milliard dollarlik 500 dan ortiq strategik texnologik va infratuzilma loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Yirik loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan o'rta biznes subyektlariga 5 milliard dollar miqdorida kreditlar ajratiladi. Bu esa mamlakat miqyosida viloyatlar va shahar-tumanlar aro raqobat hissini paydo qilib , aynan investitsion jihatdan yuqori reytinglarni qayd etish maqsadida ildamlashishiga turtki va motivatsiya bo'ladi .

Qishloq xo'jaligi sanoatini rivojlantirish ham muhim vazifa etib belgilangan. Jumladan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash 25 foizdan yuqori darajaga ko'tariladi. O'zbekistonda 2,5 million tonna sig'imga ega 100 ta agrologistika markazi quriladi. 300 ming hektar intensiv bog' va uzumzor suvni tejaydigan texnologiyalar bilan ta'minlanadi, shuningdek, tarmoq xodimlari uchun 10 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi. Pillachilikni rivojlantirish maqsadida tut plantatsiyalariga yana 105 ming hektar yer ajratiladi. Paxta hosildorligi hektariga 45–50 sentnerga, g'alla hosildorligi 80–85 sentnerga yetkaziladi. Ushbu g'oyalarning zamiri orqali nafaqat aholi manfaatlari balki , qishloq xo'jaligida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish mumkindir [4] .

Mamlakatda iqtisodiy raqobatbardoshligni oshirish uchun e'tibor markaziga aylanishi zarur bo'lgan jihatlar :

-manopoliyaga qarshi kurashishni maksimal darajada kuchaytirish va erkin tadbirdorlikni kengaytirish uchun yetarli shart-sharoitlar bilan ta'minlash hamda iqtisodiyotning barqarorligini oshirishda davlatning aralashuv o'rinalarini minimal darajada cheklash va bu borada islohatlarni ko'paytirish zarur.

-bugungi globallashuv jarayonda texnika va texnologiyalarning barcha sektorlarda ishtirokini kuchaytirish hamda rivojlangan mamlakatlar singari yangi go'yalarini amalda qo'llash dolzARB masala hisoblanadi. Shuningdek, barcha sohalararo raqamlashtirish sistemasini mamalakat bo'ylab amalda qo'llash orqali iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, moliyaviy barqarorlikka erishishimiz mumkin.

Xulosa. Raqobatbardoshlikka erishish hosildorlikni oshishiga , xarajatlarning kamayishiga , innovatsiyalarni rivojlanishiga , mahsulot sifati va hajmining oshishiga hamda umumiy jihatdan mamlakat iqtisodiyotining kengayishiga olib keladi . Albatta bu orqali aholi turmush darajasini yaxshilash hamda farovonligini oshirish mumkin . Shuning uchun iqtisodiy raqobatbatdoshlikni oshirish davlat strategiyasi darajasida bo'lishi lozim .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Barker T. and Köhler J. "Environmental Policy and Competitiveness". Environmental Policy Research Briefs, 1998.
2. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--2030-strategiyasiislohotlarimiz-shiddati-va-mazmundorligini-oshirishga-xizmat-qiladi>